

DUDUQLANUVCHI BOLALARDA KORREKSIYA JARAYONI

*Ortiqova Bahoroy Baxromali qizi**Farg'ona davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu ishda duduqlanuvchi bolalarda nutqni korreksiya qilish jarayonining mazmuni va bosqichlari yoritilgan. Duduqlanish nutq ritmi va silliqqligining buzilishi bo'lib, ko'pincha bolalik davrida psixogen omillar, asab tizimi zaifligi yoki travmatik holatlar natijasida yuzaga keladi. Maqolada logopedik ishning asosiy yo'nalishlari – tashxis, psixologik tayyorlov, logoritmik mashg'ulotlar, nafas va artikulyatsion gimnastika, hamda ijtimoiy moslashtirish bosqichlari batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, korreksiya jarayonida psixoterapevtik usullar, musiqa va o'yin terapiyasi, art-terapiya hamda rolli o'yinlarning samaradorligi asoslab berilgan. Duduqlanuvchi bolalarda nutqni tiklashda kompleks, tizimli va individual yondashuvning ahamiyati alohida ta'kidlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, logoped, psixolog va ota-onalar hamkorligi natijasida bola nutq faoliyati, muloqot madaniyati va o'ziga ishonchi sezilarli darajada oshadi.

Kalit so'zlar. Duduqlanish, nutq nuqsonlari, logopediya, korreksiya jarayoni, nutq terapiyasi, psixologik yordam, individual yondashuv.

Kirish. Hozirgi davrda jamiyatimizda bolalarning nutq rivojlanishiga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda. Nutq inson tafakkuri, ijtimoiy munosabatlari va shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shunday ekan, nutq nuqsonlari, jumladan, duduqlanish muammosi bolalarning psixologik va ijtimoiy moslashuv jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Duduqlanish — bu nutq ritmi, tempi va silliqqligining buzilishi bilan kechadigan murakkab logopedik nuqson hisoblanadi. U asosan bolalik davrida, ya'ni nutq faoliyati shakllanayotgan bosqichda kuzatiladi. Duduqlanuvchi bolalar ko'pincha o'z fikrlarini erkin ifoda eta olmaslik, ijtimoiy muloqotda ishtirok etishdan qo'rqish holatlariga duch keladilar. Bunday bolalarda korreksiya jarayonini to'g'ri tashkil etish logoped, psixolog va pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyatini talab etadi. Korreksion mashg'ulotlarda nafas mashqlari, artikulyatsion gimnastika, ritmik va relaksatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, duduqlanishni kamaytirish jarayonida bolaning ruhiy holatini barqarorlashtirish, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va kommunikativ malakalarini rivojlantirish zarur. Mazkur mavzuni o'rganish bugungi kunda logopediya sohasida dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki duduqlanishning erta bosqichida to'g'ri tashxis va korreksiya ishlari olib borilsa, ijobiy natijaga erishish imkoniyati yuqori bo'ladi.

Duduqlanish muammosi qadim zamonlardan beri insoniyat e'tiborini tortib kelgan. Qadimgi Yunoniston notidlari orasida mashhur Demosten ham duduqlanish

bilan kurashgani haqida tarixiy manbalarda qayd etilgan. U o'z nutqidagi nuqsonni yengish maqsadida turli mashqlarni qo'llagan, bu esa duduqlanishni bartaraf etish bo'yicha ilk tajribalardan biri sifatida qaraladi. Keyingi asrlarda bu sohada turli nazariyalar paydo bo'lib, duduqlanishning sabablari fiziologik, psixologik yoki nevrologik omillar bilan bog'lanib izohlangan. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida duduqlanish muammosini ilmiy asosda o'rganish logopediya va foniyatriya fanlarining shakllanishiga turtki bo'ldi. Nemis olimi Hermann Gutzmann (1865–1922) bu yo'nalishda dastlabki tibbiy tadqiqotlarni amalga oshirdi. U 1887-yilda "Über das Stottern" ("Duduqlanish haqida") nomli ilmiy ishini yozib, nutq buzilishlarini tibbiy nuqtai nazardan o'rgangan. 1891-yilda Berlinda nutq buzilishlariga ixtisoslashgan klinika ochib, u yerda duduqlanuvchi bolalar bilan muntazam terapevtik mashg'ulotlar olib borgan. So'ngra Emil Fröschels (1884–1972) duduqlanishni ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida ko'rib chiqdi. U logopediya atamasini ilmiy muomalaga kiritgan olimlardan biri hisoblanadi. Fröschels 1909-yilda nutq nuqsonlari bo'yicha ilmiy ish e'lon qilgan va Vena shahrida nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus maktab tashkil etgan. Uning yondashuvida bolalarning ruhiy holatini mustahkamlash, nutqiy nafasni to'g'ri yo'lga qo'yish va ijtimoiy muhitni yaxshilash muhim o'rin tutgan. XX asr boshlarida ingliz olimi Charles Sidney Bluemel (1884–1960) duduqlanishni ikki bosqichli jarayon sifatida tahlil qilgan. U "boshlang'ich" (primary) va "ikkinchi" (secondary) duduqlanish tushunchalarini kiritib, bolalarda bu holatning psixologik omillarga bog'liqligini asoslab bergan. 1913-yilda u "Stammering and Cognate Defects of Speech" asarini nashr etgan bo'lib, bu kitob keyingi logopedik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi. Amerikalik psixolog Wendell Johnson (1906–1965) esa duduqlanishni asosan psixologik sabablar bilan izohlab, ota-ona munosabati va bola ruhiy holati o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratgan. U "Because I Stutter" nomli kitobida o'z tajribasiga tayanib, duduqlanishni kamaytirishda psixoterapevtik yondashuvning ahamiyatini asoslab bergan. Duduqlanishni korreksiya qilish jarayonining rivojlanishi bilan bir qatorda, nafas mashqlari, artikulyatsion gimnastika, ritmik harakatlar va relaksatsion usullar keng qo'llanila boshlandi. XX asrning ikkinchi yarmida duduqlanuvchi bolalarda nutq terapiyasi tizimli ravishda shakllandi. Logoped, psixolog va pedagoglarning hamkorlikdagi yondashuvi korreksiya samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Bugungi kunda bu sohada turli zamonaviy metodikalar ishlab chiqilgan. Duduqlanishni bartaraf etishda neyropsixologik tahlil, kompyuter dasturlari, audiovizual mashg'ulotlar va individual terapiya elementlari muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. O'zbekiston logopedik amaliyotida ham bu yo'nalish faol rivojlanmoqda, bolalar nutqidagi duduqlanishni erta aniqlash va tuzatish bo'yicha milliy tajriba shakllanmoqda.

Duduqlanish ko'pincha 2–6 yosh oralig'ida paydo bo'ladi, bu davr bolaning faol nutq shakllanish bosqichi hisoblanadi. Duduqlanishning sabablari turlicha bo'lib,

ularni uch asosiy guruhga ajratish mumkin: biologik (nevrologik), psixologik va sotsial (atrof-muhit) omillar. Biologik omillar jumlasiga markaziy asab tizimi faoliyatidagi yetishmovchilik, miya po'stlog'idagi nutq markazlarining notekis rivojlanishi yoki ularning funksional diskoordinatsiyasi kiradi. Bu holatlarda nutq apparatining mushaklari, nafas va ovoz mexanizmlarining uyg'un ishlashi buziladi. Psixologik omillar esa bolaning ruhiy holati, kuchli hayajon, qo'rquv yoki stress natijasida paydo bo'ladigan ichki zo'riqlashlar bilan bog'liq. Shuningdek, oilaviy muhit, ota-onaning talabchanligi, noto'g'ri tarbiya uslublari ham duduqlanishning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Duduqlanishning turlari ham turlicha: tonik (nutq paytida to'xtab qolish), klonik (bir tovushni yoki bo'g'inni takrorlash) va aralash shakllar farqlanadi. Bolalarda duduqlanishning ko'p uchraydigan turi — aralash shakldir, bunda bola nafaqat so'z boshi yoki o'rtasida to'xtab qoladi, balki ayrim bo'g'inlarni takrorlab, kuchli hissiy reaksiya namoyon qiladi. Korreksiya jarayonida logopedik, psixologik va pedagogik yondashuvlar uyg'un tarzda qo'llanilishi zarur. Logopedik yondashuvning asosiy vazifasi — nutq nafasini, artikulyatsion apparatning harakatlarini va nutq tempi hamda ritmini me'yorga keltirishdir. Buning uchun maxsus mashqlar tizimi ishlab chiqilgan: nafas mashqlari (masalan, chuqur nafas olib asta chiqarish, sham yoqish o'yini), artikulyatsion gimnastika (til, lab, pastki jag' mushaklarini harakatlantirish mashqlari) va ovoz mashqlari (tovushlarni cho'zib aytish, unli tovushlar bilan ishlash). Psixologik yondashuvda esa bolaning emotsional barqarorligini ta'minlash, o'ziga ishonchini oshirish va nutqiy muloqotga bo'lgan ijobiy motivatsiyasini shakllantirish asosiy o'rinda turadi. Bu jarayonda psixolog bilan individual suhbatlar, relaksatsiya mashqlari, autogen trening, o'yin va art-terapiya elementlari keng qo'llaniladi. Duduqlanuvchi bolalarda ko'pincha o'z fikrini aytishdan qo'rqish yoki uyatchanlik kuchli bo'ladi, shuning uchun ularning nutqiy faolligini bosqichma-bosqich oshirish lozim. Pedagogik yondashuv esa korreksiya jarayonini ta'lim-tarbiyaviy muhitda olib borishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda bolani ijtimoiylashuvga tayyorlash, sinf jamoasida muloqot qilish, o'yinlar orqali nutqni mustahkamlash va bolalarga o'z nutqi ustida ishlash madaniyatini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi va o'qituvchilarning nutqiy muhitni to'g'ri tashkil etishi, bola bilan tinch va quvnoq ohangda muloqot qilishi katta rol o'ynaydi. Logopedik mashg'ulotlar, odatda, bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Birinchi bosqichda — tayyorlov bosqichi, bolani duduqlanish holati haqida xabardor qilish, uni ijobiy ruhda korreksiya jarayoniga tayyorlash ishlari olib boriladi. Ikkinchi bosqichda — nutqni silliqlashtirish bosqichi, bolaga to'g'ri nafas olish va nutq ritmini ushlab turish o'rgatiladi. Uchinchi bosqichda — mustahkamlash bosqichi, o'rganilgan ko'nikmalar kundalik muloqotda qo'llanadi. Yakuniy bosqich esa ijtimoiy moslashuv bosqichidir, bunda bola nutqiy faoliyatini erkin, mustaqil va tabiiy tarzda namoyon eta oladi. Zamonaviy logopediya amaliyotida duduqlanishni korreksiya qilishda turli texnologiyalar va usullar qo'llanilmoqda.

Masalan, “temporal terapiya”, “ritmik-melodik mashqlar”, “biofeedback” (bioaloqa) usuli, shuningdek, kompyuter dasturlari asosida nutq ritmini boshqarish texnologiyalari keng joriy qilinmoqda. Bu usullar nafaqat nutq mexanizmlarini muvofiqlashtiradi, balki bolalarda o‘z nutqini nazorat qilish malakasini ham rivojlantiradi. O‘zbekiston amaliyotida ham duduqlanuvchi bolalar bilan ishlash bo‘yicha samarali tajriba to‘plangan. Respublika logopediya markazlarida korreksion mashg‘ulotlar o‘tkazish, ota-onalar bilan psixologik maslahat ishlari olib borish, individual va guruhli terapiyani uyg‘unlashtirish yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi, she‘r, qo‘shiq va o‘yin elementlaridan foydalanish bolalarda nutq faolligini oshirishda o‘z samarasini bermoqda. Umuman olganda, duduqlanuvchi bolalarda korreksiya jarayoni ko‘p yo‘nalishli, tizimli va uzluksiz faoliyatni talab etadi. Logoped, psixolog, pedagog hamda ota-onalarning birgalikdagi harakatlari natijasida bola nafaqat nutqdagi nuqsonni yengadi, balki o‘ziga bo‘lgan ishonchni, ijtimoiy faollikni va emotsional barqarorlikni ham qayta tiklaydi.

Duduqlanuvchi bolalar bilan ishlash jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: tayyorlov bosqichi, mutqni silliqalashtirish, mustahkamlash va ijtimoiy moslashuv. Har bir bosqichda logopedik mashqlar, artikulyatsion va nafas mashqlari, ritmik va melodik mashqlar, shuningdek psixologik qo‘llab-quvvatlashning o‘rni kata.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova.M.Y. —Logopediya jamiyatinashriyoti Toshkent – 2007
2. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasi Ma’ruza matni .T-2001
3. Axmedova Z.M, Ayupova M.YU, Nurkeldiyeva D.A.«Barmoqlar mashqi va logopedik o‘yinlar», Toshkent «Yangi asr avlodi» 2007
4. Bolajon (takomillashtirilgan —Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarini asosida ishlab uchun dastur). Tuzuvchi mualliflar S.S. Mirdjalilova, M.SH. Rasuleva, D. Sharipov va b.- Toshkent, 2010.
5. L.I. Belyakova, YE.A. Dyakova —Logopediya Zaikaniyel xrestomatiya —Eksmo-Press, 2001
6. L.I. Belyakova, Lubenskaya A.I. Priyom uchaoyeniya straxa rechi u detey, stradayuox zaikaniyem J. Defektologiya, 1985.
7. Volkova L.S., Shaxovskaya S.N. Logopediya, —Vlados. 2004.